



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI bo'limi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qituvchi tarbiyachisi ning takomillashtirishning "birinchi qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha nashri asosida "Uy ishlarida men ham qatnash qilaman" mavzusida tashkillangan

FAOLIYAT ISHLANMASI

(May oyining 4-haftasi)



veb-saytimiz: Zokirjon.com
*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli
ma'lumotlarni yuklab oling.*

Zokirjon Admin bilan
91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.

O'rta guruhlariga may oyi 4-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT
QILMANG.

Guruh: O'rta guruhlar uchun

Oy mavzusi: Asboblar va anjomlar

Hafta mavzusi: Uy ishlarida men ham ishtirok etaman

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Ta'limiy:

tarbiyaviy jihlarga
a...ni e...
o'qitishda
tasavvur va
ijodkorlikni
kuchaytirish.

Rivojlantiruvchi:

ertak, topishmoq
va savol-javob
vositasida
bolalarning nutqini
o'stirish;

Tarbiyaviy:

bolalarni ota-onaga
izzat-hurmatda
bo'lishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: AKT, turli kasbdagi kishilar suratlari

Ta'limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, mening bilimdon talimlari...
Hozir hammangiz monitorga qarang va unda kimlar tasvirlanganini ko'rib
bering.

(Monitorda turli kasbdagi erkak kishilar suratlari qo'yiladi, bolalar o'zlarining
kasbi nimaligini izohlab berishadi.)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, ko'rdingizmi, askar ham, harbiy ham, quruvchi-yu
duradgor ham, boringki, hamma-hamma sohada sizning dadangiz xizmat
qiladilar. Ularsiz bir kunimizni ham tasavvur qilolmaymiz. Nafaqat korxona
yoki zavodda, balki oilada ham dadamizning alohida o'rni bor. Ularni oila
ustuni, g'am xo'ri sifatida har qancha avaylasak, e'zozlasak shuncha kam.
Xo'sh, sizning uyingizda dadangiz nima ishlarni bajaradilar?

1-bola: - Bizning oilada har doim biror ish qilishdan oldin dadamdan maslahat so‘raymiz.

2-bola: - Biz esa o‘zimizga yoki uyimizga biror buyum xarid qilish kerak bo‘lsa, birinchi dadamdan so‘raymiz.

3-bola: - Dam olish kunida qayerda dam olishimizni ham dadamiz aytadi- lar.

4-bola: - Bizningda biror narsa buzilib qolsa ham dadamiz uni tuzatadilar.

5-bola: - Bizning dadam bozorlik qilib keladilar.

Tarbiyachi, bolajonlar, dadamiz shuncha yumushni bajararkanlar. Biz bunga jamoa qanday yordam beramiz. Ya’ni, ularga qanday yordam berishimiz mumkin.



6-bola: - Men ularning mashinalarini yuvishga yordam beraman.

7-bola: - Men esa ular ishga ketayotganlarida har doim soatlarini beraman.

8-bola: - Men esa dadam bozor qilishga borganlarida yonlarida birga bo‘lib, ularga yordam beraman.

Tarbiyachi: - Barakalla, bolajonlar, har doim otamiz oila ustuni bo‘lgan. Otasini e’zozlagan, uni hurmat qilgan odam doim qadr topadi. Hozir esa mavzuga doir Abdulla Avloniyning “Ittifoq” nomli hikoyasini o‘qib bermoqchiman.

Jonivorlar ichinda eng kichiklari chumolidir. Lekin o'zlari kichik bo'lsalar ham nihoyatda g'ayratli, ittifoq hayvonlardur.

Ozlaricha podsholari. Kattalari, askarlari bo'ludur. Ulug'lari nimani buyursa, shuni qilur. Ittifoq va g'ayratlari soyasinda o'zlaridan katta-katta dushmanlardan qo'rqmaslar. Agar ari kabi dushman kelub, birlariga tegsa. Hamma-hammalari birdan yopishib, biri qo'lini, biri oyog'ini, biri qanotini qattiq tishlab o'zlaridan necha barobar katta bo'lsa ham tezgina qochirurlar.

Ko'rdingizmi, uning o'zi xo'b maydadur, Birlashib arqon bo'lsa, fil boylanar. Ittifoq qaynashkor aylamas, Ittifoqqa jin ham ozor aylamas.

Tarbiyachi: Bolajonlar, ko'rdingizmi, oilada ham ahil bo'lish hatto chumolilarni ham qaynashkor aylamas, Ittifoqqa jin ham ozor aylamas. Kelinglar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazingiz.

(Tarbiyachi harakatlarini ko'rsatib o'turadi.)

Ko'kda qanotin qoqqan qaldirg'och. Bahor faslin chorlagan, Qaldirg'ochim, qaldirg'ochim.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, ota qanday bo'lsa, bola ham shunday bo'ladi?

9-bola: - Ota - oila ustuni.

10-bola: - Ota qanday bo'lsa, bola ham shunday bo'ladi.



“Uy ishlarida men ham ishtirok etaman”

Qurish-yasash va matematika markazi

Qurish-yasash: «Muzlatgich»

Maqsad: bolalar tashlandiq materiallar qutidan muzlatgich yasaydilar, katta shakllarning nomini aytadilar va sanashni biladilar, shakl va ranglarni ajratadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: qutichalar, oq guash yoki oq qog‘oz, paxtali cho‘plama velim, qaychi, maishiy texnika jihozlarining rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Maishiy texnika jihozlarining rasmlarini ko‘rish.
2. Qutichadan muzlatgich yasashni rejalashtirish.
3. Bezash. Ilova rasmlari bilan Qo‘shimcha bezatish.
4. «Mening o‘rnim» ta’limiy o‘yini.

Qo‘shimcha: «Bolalarning o‘yinlari qayerda saqlanadi?» mavzusida suhbat o‘tkazish, xohishlarga ko‘ra turli xil materiallardan meva va boshqa mahsulotlarni yasab muzlatgich yasashni taklif etish.

E’tiborga molik jihati: predmetlarning shakli va o‘lchamini bilish, ishni tugatgach narsalarni o‘z joyiga qo‘yish.

Qurish-yasash va matematika markazi - 2. Geometrik shakllar (predmetlarni taqqoslash)

Maqsad: bolalar doira, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak, kvadrat, oval yassi geometrik shakllarini biladilar, ularning nomini aytish, rangli tomonlarini aytib bora oladilar, o‘xshash shakllarni taqqoslaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: har bir bola uchburchak, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, oval, doira, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak, kvadrat, oval to‘plami (kapa kichik), geometrik mozaika.

Faoliyatning borishi:

1. O‘xshash shakllarni bir-biriga qiyoslash (doira-oval, to‘g‘ri to‘rtburchak-uchburchak, kvadrat, oval).
2. «Kattaligi bo‘yicha tanla» ta’limiy o‘yini, (bitta belgi asosida geometrik shakllarni guruhlash (o‘lchami), bir o‘lchamda yig‘ish, «Geometrik mozaika»).
3. «Ajoyib xaltacha» ta’limiy o‘yini (geometrik shakllarning predmetlarga o‘xshash tomonini aytish).

Qo‘shimcha: «Shaklidan top», «Shakllarni yig‘» ta’limiy o‘yinlari.

E’tiborga molik jihati: diqqatni jamlash orqali bolalarni o‘yinga qiziqtirish.

Syujetli - rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi



«Maishiy texnik jihozlar do‘koni» syujetli-rolli o‘yin

Maqsad: bolalar sotuvchi kasbi haqida tushunchaga ega bo‘lish va maishiy texnik jihozlar bilan tanishadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: telefon, fen, dazmol, dazmollash taxta, kassa apparata.

Faoliyatning borishi:

1. Maishiy texnika jihozlari do‘konidan nimalar xarid qilish mumkinligi haqida suhbat.
2. Maishiy texnika jihozlari haqida topishmoqlar.
3. Kichik hikoya tuzish.
4. Rollarni taqsimlash.
5. O‘yin faoliyati.

Qo'shimcha: «Muruvvatchalar» multfilmini tomosha qilish. «Tasviri bo'yicha top» ta'limiy o'yini.

E'tiborga molik jihati: syujetli-rolli o'yinlarni mustaqil o'ynash, birlari bilan kelishib o'ynashga o'rgatish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

«Qo'g'irchoq'im ko'ylagi» syujetli-rolli o'yin

Maqsad: bolalar tikuv mashinasi, kir yuvish mashinasi, dazmol, dazmol bosish taxtasini biladilar, texnika jihozlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish haqida tushunchaga ega bo'ladilar va ushbu o'yinlar uchun rollarni mustaqil tanlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: bolalar tikuv mashinasi, kir yuvish mashinasi, dazmol bosish taxtasi, kirni quritish moslamasi, qo'g'irchoq, qo'g'irchoq kiyimlari.

Faoliyatning borishi:

1. Kiyinish odobi haqida so'zlash, qo'g'irchoq kiyimlarini tikish, yuvish, dazmol bosishda birinchi yordam berish bo'yicha xizmat qiladigan maishiy texnika jihozlarini eslash.
2. O'yin borishini rejalashtirish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. O'yin faoliyati.

Qo'shimcha: o'yinda rollarning almashtirish orqali har bir inson hayotida maishiy texnika jihozlarining o'rnini haqida fikr xavfsizlik asoslari bo'yicha tushunchalarni berish.

E'tiborga molik jihati: do'stona tarzda o'ynash, mustaqil fikr qabul etish. Lug'at boyliklarini oshirish.

Til va nutq

Maishiy texnika jihozlari

Maqsad: bolalar maishiy anjomlar va ularning vazifalarini biladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: maishiy anjomlar tasvirlangan kartochkalar, katta va kichik geometrik shakllar tasvirlangan kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Suhbat: «Bizga uyda yordam beruvchi maishiy texnika jihozlarining nomlarini ayting?»
 - Chang yutgich nima uchun kerak?
 - Gaz plitasi nima uchun kerak?
2. Mavzu bo'yicha topishmoqlar aytish.
3. «Sehrlangan so'z» ta'limiy o'yini.

4. «Katta-kichik» ta'limiy o'yini.

Qo'shimcha: maishiy texnika jihozlari ishlatganda xavfsizlik choralarini ko'rish haqida suhbatlashish.

E'tiborga molik jihati: lug'atni boyitish, gapni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish.



Til va nutq markazi

Uydagi maishiy texnika jihozlari

Maqsad: bolalar maishiy texnika jihozlarini to'g'ri foydalanish qanday vazifa bajarishga mo'ljallanganligi, foydalanish chora-tadbirlari, xavfsizlik qoidalariga amal qilish qoidalarini biladilar, sodda gapni to'g'ri tuzadilar, hikoya tuzadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: maishiy texnika jihozlari tasvirlari, suratlar (televizor, mikroto'liqlik pech, non pishiriladigan pech, telefon), uzun qo'g'irchoq).

Faoliyatning borishi:

1. Maishiy texnika jihozlari haqida suhbat.

Televizor-ko'rsatadi, ma'lumot beradi.

Changyutgich- tozalaydi, changni yutadi.

Plita - ovqat pishiradi, isitadi.

Telefon - muloqot qiladi.

2. «Uyda qanday maishiy texnika jihozlaridan foydalaniladi?» AKT.

3. Tanlab olgan rasm asosida kichik hikoya tuzish.

Qo'shimcha: «Muruvvatchalar» mulo'filmini tomosha qilish.

E'tiborga molik jihati: bolalar faolligiga, bog'lanishli nutq malakalarining shakllanishiga e'tibor berish.

Fan va tabiat markazi

Atrofimizdagi yorug'lik manbalari

Maqsad: bolalar quyosh haqida tasavvurga ega bo'ladilar, quyoshning jonli tabiat uchun ahamiyatini biladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: yorug'lik manbalari tasvirlangan rasmlar (quyosh, oy, yulduz, sham, gulxan, fonar, chiroq).

Faoliyatning borishi

1. Quyoshning o'simliklar hayotidagi ahamiyati haqida suhbat. Quyosh yorug'lik manbai ekanligi, quyosh botganda tun bo'lishi.

Quyosh nurining jonli tabiat (o'simliklar va hayvonlar)ga ta'siri.

2. Yulduzli osmon va oy haqida.

Nima uchun yulduzlar kichik ko'rinadi?

3. Yorug'lik manbalari bilan taqqoslash.

4. Bolalar bilimini mustahkamlash uchun.

5. «Tun va kun» o'yini.

Qo'shimcha: sayr vaqtida quyosh nurining o'simliklarning o'sishi uchun ahamiyati haqida suhbat.

E'tiborga molik jihati: bolalarning faolligini oshirish, ularning hayotida yorug'lik manbalarining ahamiyati haqida bilish.

